“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Majburiy mehnatni taqiqlashga oid xalqaro mehnat standartlari prokuror nazoratining huquqiy asosi sifatida

Abdulatif Axmedov,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Prokurorlik faoliyati va prokuror nazorati” kafedrasi dotsenti
mustaqil izlanuvchi
e-mail: ahmedovabdulatif85@gmail.com

Аннотация. Maqolada majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining xalqaro-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro mehnat standartlarini yuridik kuchi bo‘yicha tasniflash hamda har bir qatlamning prokuror nazorati predmetidagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Davlat mehnat inspeksiyasi vakolatlari bilan prokuror nazorati chegarasi ochib berilgan hamda prokuror tekshiruvini to‘rt bosqichda amalga oshirishning tavsiyaviy modeli taklif etilgan.

Калит сўзлар. majburiy mehnat, prokuror nazorati, xalqaro mehnat standartlari, ratifikatsiya, mehnat inspeksiyasi, nazorat predmeti, huquqiy asos.

Аннотация. В статье анализируются международно-правовые основы прокурорского надзора за исполнением законодательства о противодействии принудительному труду. Цель исследования–классификация ратифицированных Республикой Узбекистан международных трудовых стандартов по юридической силе и определение места каждого слоя в предмете прокурорского надзора. Раскрыто разграничение полномочий Государственной инспекции труда и прокурорского надзора, предложена рекомендательная модель проведения прокурорской проверки в четыре этапа.

Ключевые слова. принудительный труд, прокурорский надзор, международные трудовые стандарты, ратификация, инспекция труда, предмет надзора, правовая основа.

Annotation. The article analyses the international legal foundations of prosecutorial supervision over the implementation of legislation on combating forced labour. The aim of the study is to classify the international labour standards ratified by the Republic of Uzbekistan according to their legal force and to determine the place of each layer within the subject matter of prosecutorial supervision. The article delineates the boundary between the powers of the State Labour Inspectorate and prosecutorial supervision and

proposes a recommendatory four-stage model for conducting a prosecutorial inspection.

Keywords. forced labour, prosecutorial supervision, international labour standards, ratification, labour inspection, subject of supervision, legal basis.

Kirish

So‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning kuchli siyosiy irodasi tufayli inson qadrini ulug‘lash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar asosida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar, boshqa sohalardagi kabi, majburiy mehnatga qarshi kurashish yo‘nalishida yetarli normativ-huquqiy bazani shakllantirish imkonini berdi, bu jahon hamjamiyati, xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – XMT), Jahon banki va Yevroparlament tomonidan yuqori baholandi.

XMT O‘zbekistonda 2021-yilda paxta yig‘im-terimi mavsumi davomida tizimli majburiy mehnat va bolalar mehnatiga chek qo‘yilganligi to‘g‘risida yakuniy xulosasini hamda ushbu yo‘nalishdagi monitoring ishlari to‘liq O‘zbekiston tomoniga topshirilganligini e’lon qildi [10]. Shu bilan birga, “Cotton Campaign” xalqaro koalitsiyasi 2022-yil 10-martda O‘zbekiston paxtasini boykot qilishga qaratilgan global chaqiruvni to‘xtatgani va “Uzbek Cotton Pledge” majburiyatini bekor qilganini e’lon qildi [11].

O‘zbekiston tomonidan XMTning 25 ta konvensiyasi va 1 ta protokoli ratifikatsiya qilinishi milliy qonunchiligimizni takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etdi. Milliy qonunchilikni takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarni isloh qilish, iqtisodiyotga bozor tamoyillarini keng tatbiq etish, mehnat uchun munosib haq to‘lash borasida amalga oshirilgan ishlar bolalar mehnati hamda majburiy mehnatning oldini olishda asosiy omil bo‘ldi.

Shunga qaramay, huquqni qo‘llash amaliyoti uchun bir qator masalalar ochiq qolmoqda: ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlarning qaysi biri prokuror hujjatining bevosita huquqiy asosi bo‘la olishi; tavsiyaviy hujjatlarning nazorat faoliyatidagi maqomi; mehnat inspeksiyasi vakolatlari bilan prokuror nazorati chegarasi aniq farqlanmagan. Tadqiqotning maqsadi – majburiy mehnatni taqiqlashga oid xalqaro mehnat standartlarini yuridik kuchi bo‘yicha tasniflash, har bir qatlamning prokuror nazorati predmetidagi o‘rnini ochib berish hamda xalqaro standartlarni milliy nazorat amaliyotida qo‘llashga doir xulosalar tayyorlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

N. Lyutov va Ye. Gerasimova xalqaro mehnat standartlari tarkibiga yuridik jihatdan majburiy hujjatlar bilan birga “yumshoq huquq” hujjatlari ham kiritilishini, biroq ularning huquqiy oqibati tubdan farq qilishini ta’kidlaydilar [5, 66–76-b.]. Milliy olimlarimizdan A. Saidov xalqaro mehnat standartlarini milliy huquqiy tizimga singdirish jarayonini alohida huquqiy institut sifatida baholaydi [4, 121-b.], A. Mo‘minov va M. Tillabayev esa XMT konvensiyalarini shaxsning ijtimoiy-huquqiy himoyasiga qaratilgan minimal standartlar deb ta’riflaydi [2, 203-b.].

J. Rasulov XMT konvensiyalarini “qattiq huquq” va “yumshoq huquq”, universal va mintaqaviy, umumiy va maxsus hujjatlarga ajratish maqsadga

muvofiqligini ta’kidlaydi [1, 138-b.]. B. Andres va A. Aykman aynan 2014-yilgi Bayonnoma majburiy mehnatga qarshi xalqaro tartibga solishning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berganini qayd etadi [8, 359–394-b.]. Amaliy darajada XMTning majburiy mehnat indikatorlari [9] majburiy mehnatni faktik holatlar orqali aniqlash vositasi sifatida qo‘llanilmoqda.

Mazkur ishlarda xalqaro mehnat standartlarining umumiy tizimi va implementatsiya masalalari yetarli darajada yoritilgan bo‘lsa-da, ushbu standartlarni aynan prokuror nazorati predmeti nuqtai nazaridan tasniflashga, ya’ni har bir qatlamning prokuror hujjati uchun huquqiy asos bo‘la olish-olmasligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot amalga oshirilmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur maqolaning tadqiqot predmetini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning normativ-huquqiy bazasini XMTning 29-son, 105-son, 81-son, 129-son, 138-son va 182-son konvensiyalari, 1930-yilgi Konvensiyaga 2014-yilgi Bayonnoma, XMTning 1998-yilgi Deklaratsiyasi va 203-son Tavsinomasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi hamda “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun normalari tashkil etadi. Ishda xalqaro va milliy normalarni solishtirish uchun qiyosiy-huquqiy; hujjatlarning yuridik kuchini aniqlash va ularni tasniflash uchun formal-yuridik; xalqaro standartlarni prokuror nazorati mexanizmi doirasida ko‘rib chiqish uchun tizimli-tarkibiy usul, shuningdek, huquqiy talqin va modellashtirish usullari qo‘llanildi.

Tahlilning tushunchaviy chegarasini aniqlash maqsadida «xalqaro mehnat standarti» atamasi keng ma’noda – XMT doirasida qabul qilingan hamda majburiy mehnat taqiqi bilan bog‘liq barcha hujjatlar (konvensiya, bayonnoma, deklaratsiya, tavsinoma va metodik hujjatlar) majmui sifatida qo‘llaniladi. Ularning tasniflash mezoni sifatida yuridik kuch, ya’ni hujjatning prokuror hujjati uchun bevosita huquqiy asos bo‘la olish qobiliyati tanlangan.

Tahlil va natijalar

1. Xalqaro mehnat standartlarining milliy huquqiy tizimdagi o‘rni

Majburiy mehnatni taqiqlash mehnat erkinligi, inson qadr-qimmati va shaxsiy daxlsizlikni bir vaqtda himoya qiladi. Shu bois, XMT standartlari prokuror nazorati uchun tashqi siyosiy mezon emas, balki ratifikatsiya qilingan qismida milliy huquqiy tizimga kirgan normativ-huquqiy asos hisoblanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 15-moddasi xalqaro shartnomani huquqiy tizim tarkibiga kiritib, qonundan farq qilgan qoidada shartnoma ustuvorligini belgilaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining qoidalari mehnatga oid yakka tartibdagi munosabatlar va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan hollarda ham qo‘llanilishini e’tirof etadi. Mazkur normalar ratifikatsiya qilingan konvensiyalar talablariga rioya qilinishini, ularning bajarilishini nazorat qilish, amaliyotda ushbu normalarni to‘g‘ri qo‘llash hamda amalga oshirishda prokuror nazorati muhim ekanligidan dalolat beradi.

2. Majburiy standartlarning o‘zak qatlami: 29- va 105-son konvensiyalar

XMT standartlarining majburiy yoki tavsiyaviy ekanligini aniqlash prokuror nazorati uchun muhim masala hisoblanadi. Tizimning o‘zagini “Majburiy yoki zo‘raki mehnat to‘g‘risida”gi 1930-yilgi 29-son Konvensiya tashkil etadi. Ushbu hujjat majburiy mehnatning xalqaro-huquqiy ta’rifini beradigan va uni bekor

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilish majburiyatini belgilaydigan asosiy shartnomadir. Konvensiyaning 1-moddasi ishtirokchi davlatning zo‘raki yoki majburiy mehnatning barcha shakllarini imkon qadar qisqa muddatda bekor qilish majburiyatini, 2-moddasi majburiy mehnatning ta’rifi va istisnolarini, 25-moddasi esa majburiy mehnatni noqonuniy talab qilishni jinoiy jazolanadigan huquqbuzarlik deb tan olish va belgilangan jazolarning yetarli hamda qat’iy ijro etilishini ta’minlash majburiyatini mustahkamlaydi.

Ushbu konvensiyaning O‘zbekiston uchun ahamiyati ikki jihatdan belgilanadi. Birinchidan, u O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 30-avgustdagi 492-I-sonli qarori bilan ratifikatsiya qilingani sababli davlat zimmasiga bevosita xalqaro majburiyat yuklaydi (Majburiy yoki zo‘raki mehnat to‘g‘risidagi 1930-yilgi 29-son Konvensiya, 1-, 2- va 25-moddalar. Jeneva, 28.06.1930). Ikkinchidan, Mehnat kodeksining 10-moddasi xalqaro shartnoma qoidalarining mehnatga oid munosabatlar milliy qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan hollarda ham qo‘llanilishini belgilagani tufayli konvensiya normalari huquqni qo‘llash amaliyotida bevosita amal qilish imkoniga ega (O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 5- va 10-moddalar). Shuningdek, u prokuror tekshiruvlarida majburiy mehnat belgilarini baholashda natija va chegarani belgilaydi.

Ikkinchi asosiy hujjat – “Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risida”gi 1957-yilgi 105-son Konvensiya. U 29-son Konvensiyaning takrori emas, undagi umumiy ta’rifni o‘zgartirmagan holda, davlat tomonidan majburiy mehnatdan foydalanishning beshta maqsadini – siyosiy majburlash yoki tarbiya vositasi hamda siyosiy qarashlar uchun jazo, iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari uchun mehnatni safarbar etish usuli, mehnat intizomini saqlash vositasi, ish tashlashda ishtirok etganlik uchun jazo, irqiy, ijtimoiy, milliy yoki diniy kamsitish vositasi sifatida qo‘llashni – qat’iy taqiqlaydi (Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risidagi 1957-yilgi 105-son Konvensiya, 1-modda. Jeneva, 25.06.1957).

Mazkur Konvensiyaning amaliy ahamiyati ayniqsa iqtisodiy safarbarlik taqiqi bilan bog‘liq hisoblanadi. Ushbu mezon davlat va byudjet tashkilotlari xodimlarini mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga, obodonlashtirish va tozalash tadbirlariga ma’muriy yo‘l bilan jalb qilish amaliyotini huquqiy baholashning xalqaro asosini beradi. Konvensiya prokurorga mustaqil yangi vakolat bermaydi, balki uning nazorat predmetini mazmunan boyitadi. Jumladan, 29-son Konvensiya istisnolari tor talqin qilinib, har bir holatda qonuniy asos, maqsad, muddat va mutanosiblik tekshirilishi lozimligini belgilaydi.

3. 2014-yilgi Bayonnoma va prokuror tekshiruvining to‘rt bosqichli modeli

Uchinchi hujjat – 29-son Konvensiyaga 2014-yilgi Bayonnoma. U majburiy mehnatga qarshi kurashishning zamonaviy, jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan modelini ifodalaydi va davlat zimmasiga profilaktika, jabrlanuvchilarni aniqlash, ozod qilish, himoya qilish va reabilitatsiya qilish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rish, huquqbuzarlarni javobgarlikka tortish hamda xalqaro hamkorlik kabi to‘rt yo‘nalishdagi majburiyatlarni yuklaydi (1930-yilgi Majburiy mehnat to‘g‘risidagi konvensiyaga 2014-yilgi Bayonnoma, 1–5-moddalar. Jeneva, 11.06.2014.). Bayonnomaning O‘zbekiston uchun ahamiyati shundaki, u tartibga solish markazini taqiqdan jabrlanuvchini himoya qilishga ko‘chiradi [8, 359–394-b.].

Bayonnomaning 4-moddasi – huquqiy himoya vositalariga kirish talabi bo‘lib, prokurorlarning zararni qoplash choralarini ko‘rish va jabrlanuvchi manfaatida sudga da’vo taqdim etish vakolati bilan bevosita bog‘liqdir (O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni, 20-, 22–25- va 37–42-moddalar.). Fikrimizcha, ushbu talab prokuror nazoratini to‘rt bosqichda amalga oshirishni nazarda tutadi: tekshiruvgacha – xavfi yuqori tarmoq, yollash zanjiri va nazorat organi harakatsizligini aniqlash; tekshiruv davomida – rozilikning haqiqiyligi, ishdan ketish imkoni va tahdidni birgalikda baholash; tekshiruvdan so‘ng – prokuror hujjati ijrosini ta’minlash; yakuniy bosqichda – mehnatga oid huquqbuzarliklarni bartaraf etish va vakolatli organ faoliyatiga huquqiy baho berish.

4. Bolalar mehnatiga oid konvensiyalar va konstitutsiyaviy taqiq

Bolalar mehnatiga oid ikkita hujjat ham ratifikatsiya orqali majburiy kuchga ega: “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risida”gi 1973-yilgi 138-son Konvensiya (Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risidagi 1973-yilgi 138-son Konvensiya. Jeneva, 26.06.1973). hamda “Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risida”gi 1999-yilgi 182-son Konvensiya, uning 3-moddasi “a” bandi bolalardan majburiy mehnatda foydalanishni eng yomon shakllarga kiritadi (Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risidagi 1999-yilgi 182-son Konvensiya, 3-modda, “a” bandi. Jeneva, 17.06.1999).

Ushbu ikkala konvensiyaning O‘zbekiston uchun ahamiyati Konstitutsiyaning 44-moddasi bilan uzviy bog‘liq. Konstitutsiyaviy norma bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi hamda ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi shakllarini taqiqlaydi (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 44-modda). Shunga ko‘ra, prokuror tekshiruvida yosh chegarasi, ishning xavfliligi va ta’lim huquqiga ta’sir mezonlari birgalikda baholanishi lozim: bolalar mehnatining har qanday ko‘rinishi emas, balki konvensiyalar va Konstitutsiyada nazarda tutilgan mezonlarga tushadigan shakllari huquqbuzarlik sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

5. Institutsional konvensiyalar: prokuror nazorati va idoraviy nazorat chegarasi

Institutsional yo‘nalishdagi majburiy hujjat – “Mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi 1947-yilgi 81-son Konvensiya (Mehnat inspeksiyasi to‘g‘risidagi 1947-yilgi 81-son Konvensiya. Jeneva, 11.07.1947) shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasidagi nazorat uchun “Qishloq xo‘jaligida mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi 1969-yilgi 129-son Konvensiya ahamiyatli bo‘lib, ularning roli prokuror nazorati va idoraviy nazorat chegarasini belgilashda namoyon bo‘ladi. Mehnat inspeksiyasining vakolatlari xalqaro standart bilan mustahkamlangan bo‘lsa-da, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasi prokurorga idoraviy tekshiruv organlarining vazifalarini bajarishni taqiqlaydi (O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni, 23-modda).

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, prokuror majburiy mehnat bo‘yicha tekshiruvda mehnat inspeksiyasining o‘rnini bosmaydi, balki uning faoliyati qonuniyligini va natijadorligini baholaydi. Bu qoida milliy nazorat tizimida takrorlanishning oldini olishga xizmat qiladi va prokuror nazoratining idoralararo umumnazorat xususiyatini saqlaydi.

Ushbu chegaraning amaliy tatbiqi idoraviy hujjatlar orqali batafsillashtiriladi. B. Po‘latov ta’kidlaganidek, prokuratura organlarida ish Bosh

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

prokurorning Konstitutsiya, «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonun va boshqa qonunlarga asoslangan sohaviy buyruqlari bilan ham tashkil etiladi [3, 27-b.]. M. Dvoretskiy prokuratura tomonidan huquqni himoya qilish faoliyatining asosi qonunlar bilan, uning batafsil tartibga solinishi esa prokuraturaning o‘z normativ hujjatlari bilan o‘rnatilishini qayd etadi [7, 203-b.]. O. Xanyukova esa ayrim qonunlar o‘zida mazkur huquqiy hujjat doirasidan tashqaridagi munosabatlarda prokuror nazorati faoliyatini amalga oshirish uchun havolalarni nazarda tutishini ko‘rsatadi [6, 69-b.]. Shunga ko‘ra, ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlarning prokuror nazorati amaliyotiga tatbiq etilishi aynan idoraviy hujjatlar darajasida aniqlashtirilishi lozim.

6. Ratifikatsiyadan qat’i nazar amal qiladigan standartlar

Majburiy standartlarning alohida turi ratifikatsiyadan qat’i nazar amal qiladi. XMTning “Mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar to‘g‘risida”gi 1998-yil 18-iyunda qabul qilingan va 2022-yil 11-iyunda o‘zgartirilgan Deklaratsiyasiga ko‘ra, Tashkilot a’zolari tegishli konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan-qilmaganidan qat’i nazar, a’zolik faktining o‘zidan kelib chiqqan holda majburiy mehnatning barcha shakllarini bekor qilish prinsipini rag‘batlantirish va amalga oshirish majburiyatini oladilar (Mehnat sohasidagi asosiy prinsiplar va huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro mehnat tashkilotining Deklaratsiyasi, 18.06.1998 (11.06.2022-y. tahririda), 2-band). O‘zbekiston uchun bu – taqiqning shartnomaviy asosdan tashqari, a’zolikdan kelib chiquvchi mustaqil huquqiy asosga ham ega ekanini anglatadi.

7. Tavsiyaviy (“yumshoq huquq”) qatlam va uning metodologik ahamiyati

Tavsiyaviy “yumshoq huquq” qatlamga, avvalo, “Majburiy mehnat bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risida”gi 2014-yilgi 203-son Tavsinoma kiradi. U 2014-yilgi Bayonnomani to‘ldiradi va profilaktika, jabrlanuvchilarni aniqlash, himoya qilish hamda huquqni tiklash bo‘yicha batafsil yo‘riqlarni beradi, ammo yuridik majburiy kuch kasb etmaydi (Majburiy mehnat bo‘yicha qo‘shimcha choralar to‘g‘risidagi 2014-yilgi 203-son Tavsinoma. Jeneva, 11.06.2014). Prokuror nazorati uchun uning ahamiyati metodologik manba sifatida belgilanadi: Tavsinoma prokuror tekshiruv metodikasini shakllantirishda foydalanilishi mumkin, biroq prokuror hujjatining huquqiy asosi bo‘la olmaydi.

Tavsiyaviy qatlamga, shuningdek, XMTning “Adolatli globallashuv uchun ijtimoiy adolat to‘g‘risida”gi 2008-yilgi va “Mehnat kelajagi bo‘yicha asriy” 2019-yilgi deklaratsiyalari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 21-oktyabrdagi A/RES/70/1-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “Dunyomizni o‘zgartirish: 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi” hujjatining 8.7-vazifasi (“Dunyomizni o‘zgartirish: 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi”. BMT Bosh Assambleyasining 21.10.2015- y. A/RES/70/1-sonli rezolyutsiyasi, 8.7-vazifa) hamda XMTning majburiy mehnat indikatorlari [9] kiradi. Ular shartnoma bilan teng yuridik kuchga ega emas; O‘zbekiston uchun ahamiyati davlat siyosatining indikatorlarini belgilash va tekshiruv metodikasini shakllantirish bilan cheklanadi.

Xulosa va takliflar

Birinchidan, majburiy mehnatga qarshi kurashishga oid xalqaro mehnat standartlari yuridik kuchi bo‘yicha uch qatlamdan iborat yaxlit tizimni tashkil etadi: ratifikatsiya orqali majburiy kuchga ega bo‘lgan konvensiyalar va

bayonnoma, XMTga a’zolik faktidan kelib chiquvchi majburiyatlar, yuridik majburiy kuch kasb etmaydigan tavsiyaviy hujjatlar. Ushbu tasniflash prokuror nazorati predmetining chegarasini aniqlashning metodologik asosidir.

Ikkinchidan, birinchi va ikkinchi qatlam hujjatlari, Konstitutsiyaning 15-moddasi va Mehnat kodeksining 10-moddasi kuchiga ko‘ra, prokuror hujjatining bevosita huquqiy asosi bo‘la oladi. Uchinchi qatlam esa faqat tekshiruv metodikasini shakllantirishda metodologik manba sifatida qo‘llanilishi mumkin va prokuror hujjatida normativ asos sifatida ko‘rsatilmaydi.

Uchinchidan, 29-son Konvensiya prokuror tekshiruvida majburiy mehnat belgilarini baholashning mazmuniy chegarasini, 105-son Konvensiya esa ma’muriy safarbarlik amaliyotini huquqiy baholash mezonini beradi. Ikkala hujjat ham prokurorga yangi vakolat bermaydi, balki uning nazorat predmetini mazmunan boyitadi.

To‘rtinchidan, 2014-yilgi Bayonnomaning 4-moddasi prokurorning zararni qoplash choralarini ko‘rish va jabrlanuvchi manfaatida sudga da’vo taqdim etish vakolati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shu asosda prokuror tekshiruvini to‘rt bosqichda – tekshiruvgacha, tekshiruv davomida, tekshiruvdan so‘ng va yakuniy bosqichda amalga oshirish modeli taklif etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi: 1) Bosh prokurorning sohaviy buyrug‘ida majburiy mehnat bo‘yicha tekshiruv o‘tkazishda bevosita qo‘llaniladigan xalqaro hujjatlar ro‘yxatini va ularga havola qilish tartibini belgilash; 2) prokuror tekshiruv metodikasida XMTning majburiy mehnat indikatorlarini isbotlash vositasi sifatida qo‘llash qoidasini mustahkamlash, ularni mustaqil yuridik belgi deb qarash amaliyotiga yo‘l qo‘ymaslik; 3) prokuror nazorati va davlat mehnat inspeksiyasi tekshiruvlari predmetini idoralararo hujjat darajasida chegaralash; 4) 2014-yilgi Bayonnomaning 4-moddasidan kelib chiquvchi jabrlanuvchi manfaatida da’vo taqdim etish amaliyotini alohida hisobga olish va baholash tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov J.A. Majburiy mehnatni tugatish bo‘yicha xalqaro standartlarni O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari: yurid. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2021. – 138-b.

2. Mo‘minov A.R., Tillabayev M.A. Inson huquqlari: darslik. Mas’ul muharrir A.X. Saidov. 2-nashr. – Toshkent: Adolat, 2013. 203-b.

3. Po‘latov B.X. Inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ta’minlashda prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari // “Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDYI, 2007. – 27-b.

4. Саидов А.Х. Имплементация международных трудовых стандартов в национальную правовую систему Узбекистана // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – 2018. № 2 (78). – С. 121.

5. Лютов Н.Л., Герасимова Е.С. Международные трудовые стандарты и российское трудовое законодательство: монография. 2-е изд., доп. и перераб. – М.: Центр социально-трудовых прав, 2015. – С. 66–76.

6. Ханюкова О.Ю. Правовое регулирование осуществления надзора за исполнением законов органами местного самоуправления // Отечественная юриспруденция. 2016. № 8 (10). – С. 69.

7. Дворецкий М.Ю. Приоритетные направления деятельности прокуратуры Российской Федерации при реализации правозащитных функций и обоснованному привлечению к ответственности // Вестник ТГУ. 2015. № 5 (145). – С. 203.

8. Andrees B., Aikman A. Raising the Bar: The Adoption of New ILO Standards Against Forced Labour // Revisiting the Law and Governance of Trafficking, Forced Labor and Modern Slavery / ed. by P. Kotiswaran. Cambridge: Cambridge University Press, 2017. P. 359–394. DOI: 10.1017/9781316675809.013.

9. ILO Indicators of Forced Labour. Geneva: International Labour Office, 2012. URL: https://www.ilo.org/publications/ilo-indicators-forced-labour (murojaat sanasi: 05.08.2026).

10. Third Party Monitoring of the Use of Child Labour and Forced Labour during the Uzbekistan Cotton Harvest: Final Report. – Geneva: International Labour Organization, 2021. URL: https://www.ilo.org/washington/news/WCMS_767753/lang--en/index.htm (murojaat sanasi: 05.08.2026).

11. Cotton Campaign Ends its Call for a Global Boycott of Cotton from Uzbekistan. 10 March 2022. URL: https://www.cottoncampaign.org/news/cotton-campaign-ends-its-call-for-a-global-boycott-of-cotton-from-uzbekistan (murojaat sanasi: 05.08.2026).